



A COMMUNICATIVE APPROACH IN THE MORAL EDUCATION SYSTEM TO FOSTER LOYALTY TO NATIONAL AND CULTURAL VALUES

Sherzodjon Shukhratovich Qurbonov

Independent Researcher

*Institute of Socio-Spiritual Research, operating under the Republic Center for
Spirituality and Enlightenment*

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Moral education, democratic society, moral stance, spiritual immunity, social capital, social solidarity, historical and social traditions, cultural identity, communicative approach, collective consciousness.

Received: 19.09.25

Accepted: 20.09.25

Published: 21.09.25

Abstract: This article explores the role of values and spiritual orientations in the formation of personal identity, highlighting their significance as foundational elements in the self-understanding process. It argues that loyalty to national and cultural values is not merely a social norm, but a vital internal mechanism that nurtures individual self-awareness and supports moral and social engagement. The paper substantiates the central importance of values in the moral upbringing of youth and emphasizes the need to refine and deepen the mechanisms for value-based education within the context of rapid technological advancement. Furthermore, the article examines international academic approaches alongside culturally rooted ethical frameworks to propose effective strategies for fostering commitment to national and cultural values.

AXLOQIY TARBIYA TIZIMI MILLIY VA MADANIY QADRIYATLARGA SODIQLIKNI SHAKLLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV YONDASHUV

Sherzodjon Shuxratovich Qurbonov

*Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti
mustaqil izlanuvchisi*

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Axloqiy tarbiya, demokratik jamiyat, axloqiy pozitsiya, ma'naviy immunitet, ijtimoiy kapital, ijtimoiy birdamlik, tarixiy va ijtimoiy an'analar,

Annotatsiya: Mazkur maqolada Inson o'zining kimligini anglash jarayonida qadriyatlar va ma'naviy yo'nalishlarga tayanadi, chunki ular shaxsiy identitetning

madaniy identitet, kommunikativ yondashuv, kollektiv ong.

poydevorini tashkil etishga alaohida ilmiy yondashilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlik oddiy ijtimoiy odat emas, balki insonning o'zini anglash va ijtimoiy faolligini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi ichki mexanizmdir. Shu nuqtai nazardan yoshlarning axloqiy tarbiyasida qadriyatlar markaziy o'rinni egallashini asoslaydi, biroq uni texnologik sharoitlarda amalga oshirish mexanizmlarini yanada chuqurlashtirish zarur. Maqolada xalqaro ilmiy yondashuvlar hamda milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish bilan bog'liq axloqiy tarbiya mexanizmlari bayon etilgan.

КОММУНИКАТИВНЫЙ ПОДХОД В СИСТЕМЕ НРАВСТВЕННОГО ВОСПИТАНИЯ ДЛЯ ФОРМИРОВАНИЯ ПРЕДАННОСТИ НАЦИОНАЛЬНЫМ И КУЛЬТУРНЫМ ЦЕННОСТЯМ

Шерзоджон Шухратович Курбонов

Независимый соискатель

Института социально-духовных исследований при

Республиканском центре духовности и просвещения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Нравственное воспитание, демократическое общество, нравственная позиция, духовный иммунитет, социальный капитал, социальная солидарность, исторические и социальные традиции, культурная идентичность, коммуникативный подход, коллективное сознание.

Аннотация: В данной статье подчёркивается, что в процессе осознания человеком своей идентичности основополагающее значение имеют ценности и духовные ориентиры, так как именно они составляют фундамент личностной идентичности. Это свидетельствует о том, что приверженность национальным и культурным ценностям — не просто социальная привычка, а внутренний механизм, поддерживающий процесс самопознания и социальную активность человека на духовном уровне. С этой точки зрения обосновывается центральная роль ценностей в нравственном воспитании молодёжи, однако подчёркивается необходимость более глубокого изучения механизмов их реализации в условиях технологического развития. В статье рассматриваются международные научные подходы, а также механизмы нравственного воспитания, связанные с формированием приверженности национальным и культурным ценностям.

Kirish. Axloqiy tarbiya tizimining maqsadi nafaqat shaxsni jamiyat tomonidan tan olingan normalar va qadriyatlarga moslashtirish, balki uning ichki dunyosini milliy va madaniy merosga sodiq holda mustahkamlash hamdir.

Axloqiy tarbiya jarayonida yoshlarni ijtimoiy faollikka undash masalasi ko'proq ma'naviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liqdir. John Deweyning ta'kidlashicha, "demokratik jamiyatning asosiy vazifasi fuqarolarni ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga tayyorlashdir" [1.103.]. Bu g'oya axloqiy tarbiyada yoshlarni befarqlikdan qutqarish va ularni ijtimoiy mas'uliyatga chorlovchi asosiy nuqtani belgilaydi. Biroq, Deweyning konsepsiyasi asosan ta'lim muassasalari doirasida ko'rilgan bo'lsada, zamonaviy sharoitda bu vazifani axborot texnologiyalari, ommaviy kommunikatsiya vositalari va virtual makon orqali amalga oshirish ma'naviy jarayonlarning muhim talabi bo'lib bormoqda. Demak, yoshlarni ijtimoiy faollikka undash nafaqat maktab va oliygohlardagi ta'lim jarayoni, balki raqamli texnologiyalar vositasida ham maqsadli yo'naltirilishi kerak.

Adabiyotlar tahlili. Axloqiy tarbiya tizimi milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishda kommunikativ yondashuv Jürgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi, Talcott Parsonsning har qanday jamiyat ijtimoiy tizim sifatida qadriyatlarga asoslanishi, Robert Putnamning "ijtimoiy kapital — bu o'zaro ishonch, norma va tarmoqlar yig'indisi bo'lib, u jamiyatdagi hamkorlikni kuchaytiradi va ijtimoiy institutlarning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy fikrlari hamda Paulo Freire, Émile Durkheim, Lawrence Kohlberg, Charles Taylor, Clifford Geertz, Paulo Freire, Martha Nussbaum, Charles Taylor va Manuel Castellslarning ilmiy xulosalarida axloqiy tarbiya tizimi milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishda ham, yoshlarni ijtimoiy faollikka undashda ham ma'naviy jarayonlar va zamonaviy mexanizmlar uyg'unligiga tayanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada kuzatish, adabiyotlar, ma'muriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish va tahlil qilish, taqqoslash, ilmiy bilish va vorisiylik kabi tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Yoshlarning ongini milliy va madaniy qadriyatlarga uyg'unlashtirish, ularning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish va bu orqali jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Bu jarayon ma'naviy mexanizmlar yordamida yo'naltiriladi, chunki qadriyatlarni faqat nazariy targ'ib qilish emas, balki ularni amaliy hayot tajribasiga singdirish eng muhim vazifalaridan biri xisoblanadi.

Tahlillar va natijalar. Milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish bilan bog'liq axloqiy tarbiya mexanizmlarini Jürgen Habermasning kommunikativ harakat nazariyasi ham yoritadi. U "ijtimoiy birdamlik muloqot asosida qaror topadi, muloqot esa qadriyatlarga

asoslangan ijtimoiy kelishuvni ta'minlaydi" deb yozadi [2.285.]. Habermasning bu qarashlari axloqiy tarbiyaning muloqotga asoslangan texnologiyalari qanchalik muhimligini ko'rsatadi, chunki yoshlar orasida qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish jarayoni monologik emas, balki dialogik tarzda kechishi zarur. Bu jarayon yoshlarning bir-biri bilan hamkorlik qilish, fikr almashish va ma'naviy tajribalarni o'zaro muhokama qilish orqali ularni ijtimoiy faollikka undaydi. Habermasning nazariyasi shuni tasdiqlaydiki, axloqiy tarbiya faqat nazariy ko'rsatmalar emas, balki ma'naviy-ijtimoiy texnologiyalar asosida tashkil qilinadigan interaktiv jarayondir.

Axloqiy tarbiya tizimining maqsadi yoshlarning ongini milliy va madaniy qadriyatlarga uyg'unlashtirish, ularning ijtimoiy faolligini rag'batlantirish va bu orqali jamiyatning ma'naviy barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Bu jarayon ma'naviy mexanizmlar yordamida yo'naltiriladi, chunki qadriyatlarni faqat nazariy targ'ib qilish emas, balki ularni amaliy hayot tajribasiga singdirish zarurdir. Talcott Parsons bu haqda "har qanday jamiyat ijtimoiy tizim sifatida qadriyatlarga asoslanadi, qadriyatlar esa ijtimoiy faoliyatni tartibga soluvchi asosiy mexanizmdir" deb yozadi [3.36.]. Demak, milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish jarayoni faqat axloqiy ko'rsatmalar orqali emas, balki yoshlarni faol ijtimoiy jarayonlarga jalb etish, ularni muayyan vazifalar va mas'uliyatlarni bajarishga yo'naltirish orqali mustahkamlanadi. Parsonsning konsepsiyasi qadriyatlarning ijtimoiy tizimdagi markaziy o'rnini ochib beradi, biroq uni konkret ma'naviy-axloqiy texnologiyalar yordamida amaliyotga tatbiq qilish masalasi alohida yondashuvni talab qiladi.

Shuningdek, axloqiy tarbiya tizimida yoshlarni ijtimoiy faollikka undash ularning ijtimoiy kapitalini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir. Robert Putnamning fikricha, "ijtimoiy kapital — bu o'zaro ishonch, norma va tarmoqlar yig'indisi bo'lib, u jamiyatdagi hamkorlikni kuchaytiradi va ijtimoiy institutlarning samaradorligini oshiradi" [4.19.]. Bu qarashdan kelib chiqadiki, yoshlarni faollikka undash jarayonida ularda nafaqat shaxsiy mas'uliyat, balki ijtimoiy birdamlik hissini shakllantirish zarur. Putnamning nazariyasiga tanqidiy munosabat bildirish mumkin, chunki u ijtimoiy kapitalni asosan g'arb jamiyatlari tajribasi asosida izohlaydi. Biroq uning nazariyasini ma'naviy texnologiyalar kontekstida qo'llash orqali yoshlar orasida milliy qadriyatlarga sodiqlik va ijtimoiy faollikni uyg'unlashtirish mexanizmlarini aniqlash mumkin.

Axloqiy tarbiya jarayonida milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni mustahkamlashda muloqot va ijtimoiy tajriba almashuvi alohida o'rin tutadi. Paulo Freire bu borada "haqiqiy ta'lim jarayoni muloqot asosida kechadi, muloqot esa insonlarni erkinlik va mas'uliyat sari yetaklaydi" deya ta'kidlaydi [5.72.]. Bu qarash yoshlarni ijtimoiy faollikka undashning asosiy texnologik yo'li muloqot va hamkorlik ekanini ko'rsatadi. Freirening fikrlarini qo'llab-quvvatlagan holda aytish mumkinki, yoshlar faqat tayyor qadriyatlarni qabul qiluvchi passiv

subyekt emas, balki ularni yaratishda va rivojlantirishda faol ishtirok etuvchi shaxslarga aylanishi zarur. Shu sababli axloqiy tarbiya tizimida dialogik texnologiyalar, bahs-munozaraga asoslangan interaktiv usullar va ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish mexanizmlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu jarayonda ma'naviy mexanizmlar yoshlarni ijtimoiy faollikka yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Émile Durkheim ta'kidlaganidek, "axloqiy tarbiya ijtimoiy birdamlikni ta'minlaydigan mexanizmdir, chunki u jamiyat a'zolarining xatti-harakatlarini umumiy qadriyatlar tizimiga uyg'unlashtiradi" [6.38.]. Bu yondashuv axloqiy tarbiya jarayonida milliy va madaniy qadriyatlarning jamiyat birligidagi o'rnini ochib beradi, biroq zamonaviy sharoitda ularni samarali shakllantirish uchun interaktiv va innovatsion ma'naviy texnologiyalardan foydalanish zarurligini ham ko'rsatadi.

Bundan tashqari, yoshlarni ijtimoiy faollikka undashda shaxsning axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish muhimdir. Lawrence Kohlberg bu haqda "axloqiy rivojlanish shaxsning ijtimoiy munosabatlarda qatnashish jarayonida bosqichma-bosqich yuqori darajaga ko'tarilishi bilan bog'liq" deya qayd etadi [7.212.]. Demak, yoshlarning ijtimoiy loyihalarda ishtiroki, ko'ngillilik faoliyati va jamiyat uchun mas'uliyatli qarorlar qabul qilish jarayoni ularning axloqiy rivojlanishida markaziy ahamiyat kasb etadi. Kohlbergning nazariyasi normativ bosqichlarga asoslangan bo'lsa-da, unga tanqidiy yondashuv sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish faqat universal axloqiy mezonlar emas, balki jamiyatning tarixiy-madaniy kontekstiga xos o'ziga xosliklarni ham hisobga oladi.

Shuningdek, yoshlarni ijtimoiy faollikka undash ma'naviy jarayonlarda identitet masalasi bilan uzviy bog'liqdir. Charles Taylor "shaxsiy identitet milliy va madaniy qadriyatlar bilan uyg'unlikda shakllanadi, chunki inson o'zini faqat individual mavjudlik sifatida emas, balki tarixiy va ijtimoiy an'analar ichida angelaydi" deya ta'kidlaydi [8.33.]. Bu qarash axloqiy tarbiya tizimida milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni qadrlash va yoshlarni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga jalb etishning nazariy asosini kuchaytiradi. Taylorning fikriga munosabat bildirib aytish mumkinki, identitetning bunday shakllanishi yoshlar ongida mustahkam ma'naviy immunitet yaratadi va ularni jamiyat taraqqiyotiga mas'uliyat bilan qarashga undaydi.

Axloqiy tarbiya tizimi milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishda shaxsni nafaqat jamiyatda mavjud normalarga moslashtirish, balki uni o'z milliy o'zligini anglashga va ijtimoiy mas'uliyatga tayyorlash vazifasini bajaradi. Shu jihatdan qaralganda, ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar axloqiy tarbiyaning shakllanish mexanizmlarini kuchaytiruvchi, uni zamonaviy ijtimoiy-madaniy sharoitlarga moslashtiruvchi vosita sifatida qaraladi. Clifford Geertz "madaniyatni inson hayotiy jarayonlarini ma'no bilan to'ldiruvchi belgilar tizimi" deb

ta'riflab, uni shaxsning dunyoqarashini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko'rsatadi[9.89.]. Bu yondashuv axloqiy tarbiyaning milliy va madaniy qadriyatlarni shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatib beradi, ammo unga tanqidiy yondashilganda, bunday belgilar tizimining faqat meros sifatida emas, balki yoshlar ongida yangicha, kreativ talqinlar asosida faol ijtimoiy pozitsiya shakllantirish vositasi bo'lishi ham zarur.

Axloqiy tarbiya tizimining ijtimoiy faollikka undovchi mexanizmlaridan biri yoshlarning jamiyat hayotida faol sub'ekt sifatida o'zini ko'rsatishidir. Paulo Freire bu haqda "inson erkinligi faqat u jamiyatdagi voqelikni tanqidiy anglab, uni o'zgartirishga kirishgandagina to'la ro'yobga chiqadi" deya ta'kidlaydi[10.54.]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, axloqiy tarbiya yoshlarni faqat itoatkor sub'ektlarga emas, balki tanqidiy tafakkur qiluvchi, ijtimoiy islohotlarda ishtirok etuvchi faol shaxslarga aylantirishga xizmat qilishi kerak. Shu ma'noda, Freirening pedagogik konsepsiyasini milliy-madaniy qadriyatlar kontekstida qo'llash orqali yoshlarni faollikka undash yanada samarali bo'lishi mumkin. Chunki ularni o'z qadriyatlarini anglagan holda ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashishga rag'batlantirish, axloqiy immunitetni ham kuchaytiradi.

Bundan tashqari, yoshlarni axloqiy tarbiya orqali ijtimoiy faollikka undash shaxsning o'z milliy va madaniy qadriyatlari bilan uyg'unlashgan global qarashlarini shakllantirishni ham taqozo etadi. Martha Nussbaum bu borada "haqiqiy fuqarolik tarbiyasi shaxsni faqat o'z jamiyatining a'zosi emas, balki insoniyatning bir bo'lagi sifatida qarashga undaydi" deb ta'kidlaydi[11.10.]. Bu nuqtai nazar yoshlarni global miqyosdagi mas'uliyatli ishtirokchi sifatida tarbiyalash g'oyasini ilgari suradi. Biroq unga tanqidiy yondashilganda, shaxsni faqat kosmopolit qarashlarga yo'naltirish emas, balki milliy qadriyatlarga sodiqlikni global identitetning ajralmas tarkibiy qismi sifatida shakllantirish masalasi ham dolzarb bo'lib qoladi.

Axloqiy tarbiya tizimi milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishda ham, yoshlarni ijtimoiy faollikka undashda ham ma'naviy jarayonlar va zamonaviy mexanizmlar uyg'unligiga tayanadi. Axloqiy tarbiya bir tomondan shaxsning qadriyatlar tizimini mustahkamlasa, ikkinchi tomondan uni jamiyatdagi ijtimoiy aloqalarda faol ishtirok etishga yo'naltiradi. Shunday nuqtada Émile Durkheimning "axloq jamiyatning kollektiv ongini ifodalaydi va shaxsni umumiy qadriyatlar tizimiga bog'lash orqali uni ijtimoiy birdamlikka tayyorlaydi" degan ta'kidi muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi[12.227.]. Bu fikr shuni anglatadiki, axloqiy tarbiya jarayonida milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlik shaxsni ijtimoiy birdamlikning faol ishtirokchisiga aylantirish uchun zaruriy shartdir. Biroq Durkheim konsepsiyasining zamonaviy sharoitda qo'llanishida faqat kollektivlikka emas, balki individual ijodkorlik va tanqidiy fikrlash imkoniyatlarini ham kiritish talab etiladi.

Martha Nussbaum esa milliy va global qadriyatlar uyg'unligini ta'kidlab, "inson huquqlari va umumiy insoniy qadriyatlar doirasida tarbiyalangan yoshlar o'z jamiyatiga ham, jahon hamjamiyatiga ham mas'uliyat bilan qaraydi" deydi[13.23.]. Bu fikr yoshlarni ijtimoiy faollikka undash jarayonida kosmopolit yondashuvning o'rnini ko'rsatadi. Shu bilan birga, unga tanqidiy munosabat bildirgan holda aytish mumkinki, milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirmasdan turib, kosmopolit qadriyatlarni singdirish beqarorlikka olib kelishi mumkin. Demak, axloqiy tarbiya tizimi global g'oyalardan ilhomlansa ham, uning mustahkam poydevori milliy meros va madaniy o'zlik bo'lishi shart.

Axloqiy tarbiya tizimining asosiy vazifasi shaxs ongida milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish, bu jarayon orqali esa yoshlarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undashdan iboratdir. Bu masala ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar kontekstida ko'rilganda, tarbiya jarayonining o'zi shaxsiy va ijtimoiy o'zlikni uyg'unlashtirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Charles Taylor bu haqda "inson o'zining axloqiy pozitsiyasini faqat qadriyatlar tizimiga tayanibgina anglay oladi, chunki qadriyatlar unga kim ekanligini, qaysi jamiyatga mansub ekanini va qanday mas'uliyatga ega bo'lishini belgilaydi" deya ta'kidlaydi[14.27.]. Bu fikr axloqiy tarbiya tizimida milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlik shaxsning ijtimoiy faoliyatidagi barqaror yo'nalishlarni belgilovchi asosiy omil ekanini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, tarbiya faqat nazariy bilim emas, balki ma'naviy jarayonlar yordamida yoshlarni milliy qadriyatlarga tayangan holda ijtimoiy maydonga olib chiqadigan texnologik mexanizmdir.

Yoshlarni ijtimoiy faollikka undash jarayonida texnologiyalardan foydalanish masalasi ham dolzarbdir. Manuel Castells zamonaviy axborot jamiyatini tahlil qilar ekan, "madaniy identitet va qadriyatlar global tarmoqda qayta shakllanmoqda, ammo shaxsning milliy o'zligini mustahkamlash texnologiyalar yordamida ijtimoiy faollikni yanada kuchaytiradi" deb yozadi[15.9.]. Castellsning yondashuvi shuni anglatadiki, yoshlarning ijtimoiy faolligi raqamli makonda kuchayishi uchun ular milliy qadriyatlarga sodiq qolishi shart. Chunki faqat shu orqali ularning faoliyati ma'naviy jarayonlar asosida barqarorlikka ega bo'ladi va ijtimoiy texnologiyalar samarali ishlaydi. Shunday qilib, axloqiy tarbiya tizimi milliy qadriyatlarni singdirish orqali yoshlarni nafaqat ijtimoiy maydonga chiqaradi, balki ularni faol va ongli ravishda undovchi kuchga aylanadi.

Axloqiy tarbiya tizimining maqsadi shaxsda milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish bilan bir qatorda, uni jamiyatda faol ijtimoiy mavqega ega bo'lishga undashdir. Bu jarayonning murakkabligi shundaki, u faqatgina individual ongning shakllanishi emas, balki keng ijtimoiy maydonda ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar orqali barqarorlashtiriladigan

uzluksiz harakat sifatida namoyon bo'ladi. Jürgen Habermas bu masalaga taalluqli ravishda "axloqiy qadriyatlar kommunikativ amaliyot orqali ijtimoiy legitimlikka erishadi, chunki shaxsiy qarashlar muloqotda ijtimoiy mezonlar bilan uyg'unlashadi" deya qayd etadi[16.161.]. Bu fikr shuni ko'rsatadiki, milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish jarayoni axloqiy tarbiya tizimida dialog, muloqot va ijtimoiy hamkorlik orqali amalga oshadi. Ammo, Habermasning nazariyasini tanqidiy yondashuvda ko'rish mumkin, chunki milliy qadriyatlarning tub mohiyati ba'zan global kommunikativ kontekstda sathiyroq talqin qilinishi xavfi mavjud.

Shuningdek, axloqiy tarbiya tizimining yoshlarni ijtimoiy faollikka undashdagi kuchi uning transformativ tabiatida namoyon bo'ladi. Hannah Arendt bu haqda "axloqiy va siyosiy tarbiya yoshlarni yangi dunyo qurilishiga tayyorlaydi, chunki ular mavjud tuzumni faqat meros qilib olmay, balki uni yangidan yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar" deya yozadi[17.192.]. Bu yondashuv shuni anglatadiki, milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlik yoshlarni mavjud ijtimoiy muhitga moslashtirishdan ko'ra, ularni faol islohotchi sub'ekt sifatida shakllantirishi kerak. Shu ma'noda axloqiy tarbiya tizimi nafaqat jamiyat barqarorligini ta'minlovchi, balki uni yangilashga qodir bo'lgan ijodiy kuchni ham tarbiyalaydi. Arendtning ushbu qarashlari zamonaviy ma'naviy texnologiyalar bilan uyg'unlashganda, yoshlarning ijtimoiy faolligi yanada keng va samarali ko'lamda ro'yobga chiqishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, axloqiy tarbiya tizimi milliy va madaniy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirishda kommunikativ yondashuv (Habermas), madaniy kapitalni o'zlashtirish va transformativ faoliyat (Arendt) kabi nazariy asoslarda boyiydi. Bu tizim ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar orqali yoshlarni nafaqat jamiyatning passiv a'zosi, balki uni faol ravishda shakllantiruvchi va yangilovchi sub'ektga aylantiradi. Shu boisdan, axloqiy tarbiya tizimi jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining poydevori sifatida ko'rilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dewey, J. Democracy and Education. – New York: Macmillan.
2. Habermas, J. The Theory of Communicative Action. Vol. 1: Reason and the Rationalization of Society. – Boston: Beacon Press.
3. Parsons, T. The Social System. – Glencoe: The Free Press.
4. Putnam, R. Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster.
5. Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum.
6. Durkheim, É. L'éducation morale. – Paris: Alcan.
7. Kohlberg, L. Essays on Moral Development. Vol. I: The Philosophy of Moral Development. – San Francisco: Harper & Row.

8. Taylor, C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. – Cambridge: Harvard University Press.
9. Geertz, C. The Interpretation of Cultures. – New York: Basic Books.
10. Freire, P. Pedagogy of the Oppressed. – New York: Continuum.
11. Nussbaum, M. Cultivating Humanity: A Classical Defense of Reform in Liberal Education. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
12. Durkheim, É. Les formes élémentaires de la vie religieuse. – Paris: Alcan.
13. Nussbaum, M. Creating Capabilities: The Human Development Approach. – Cambridge, MA: Harvard University Press.
14. Taylor, C. Sources of the Self: The Making of the Modern Identity. – Cambridge: Harvard University Press.
15. Castells, M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell.
16. Habermas, J. Between Facts and Norms: Contributions to a Discourse Theory of Law and Democracy. – Cambridge: MIT Press.
17. Arendt, H. Between Past and Future: Six Exercises in Political Thought. – New York: Viking Press.